

Xasanov Farruxjon Sherali o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, Uzbekiston

KARDIAL ISHEMIYA NATIJASIDA BOSH MIYA NEYRONLARIDA KUZATILADIGAN MIKROSKOPIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya

Surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etgan 35 nafar bemorda bosh miya to'qimasi bo'laklarining patomorfologik tekshiruvi o'tkazildi. Surunkali yurak ishemik kasalligida bosh miya yarim sharlari po'stlog'i neyronlarida ishemik va distrofik o'zgarishlar rivojlanishi aniqlandi. Bundan tashqari, peritsellyulyar bo'shliqning turli darajada kengayishi va neyropilning tiniqlanishi kuzatildi. Surunkali yurak ishemik kasalligining oldini olish va davolash jarayonida bunday o'zgarishlarni hisobga olish zarurligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: surunkali yurak ishemik kasalligi, bosh miya, neyron, peritsellyulyar bo'shliq, neyropil, distrofiya.

Хасанов Фаррухжон Шерали угли
Самаркандский государственный медицинский
университет
г. Самарканд, Узбекистан

МИКРОСКОПИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ НЕЙРОНОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА В РЕЗУЛЬТАТЕ КАРДИАЛЬНОЙ ИШЕМИИ

Аннотация

Патоморфологическое исследование фрагментов ткани головного мозга было проведено у 35 пациентов, умерших от хронической ишемической болезни сердца. Установлено, что при хронической ишемической болезни сердца в нейронах коры полушарий головного мозга развиваются ишемические и дистрофические изменения. Также отмечается расширение перичеселлюлярного пространства различной степени и просветление нейропилия. Подчеркнуто, что такие изменения необходимо учитывать в процессе профилактики и лечения хронической ишемической болезни сердца.

Ключевые слова: хроническая ишемическая болезнь сердца, головной мозг, нейрон, перичеселлюлярное пространство, нейропилия, дистрофия.

Khasanov Farrukhjon Sherali ugli
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan

MICROSCOPIC CHANGES OBSERVED IN CEREBRAL NEURONS AS A RESULT OF CARDIAL ISCHEMIA

Abstract

Tissue samples from the brains of 35 patients who died from chronic ischemic heart disease were subjected to pathomorphological examination. It was found that in chronic ischemic heart disease, ischemic and dystrophic changes develop in the neurons of the cerebral cortex. Additionally, various

degrees of pericellular space expansion and neuropil illumination were observed. It is emphasized that such changes should be taken into account during the prevention and treatment of chronic ischemic heart disease.

Keywords: chronic ischemic heart disease, brain, neuron, pericellular space, neuropil, dystrophy.

Muammoning dolzarbligi. Jahon miqiyosida yurak ishemik kasalligi bugungi kunga qadar tibbiyotning oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yurakning qon tomirlari kasalliklarini oldini olish va davolashda zamonaviy yutuqlarga qaramasdan yurak ishemik kasalligi hali ham yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi [2,5]. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu kasallikdan o'lim sodir bo'lishi barcha o'lim holatlarini 3/1 qismini tashkil etadi. Har yili 1 milliondan ortiq odam ushbu kasallikdan ko'z yumadi. Yurakning surunkali ishemik kasalligida bosh miya tuzilmalarida bo'ladigan o'zgarishlar bugungi kunga qadar to'liq yoritilmagan va o'z yechimini kutayotgan tibbiyot oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda[1,3,4].

Tadqiqotning maqsadi: bosh miya neyronlarining yurakning surunkali ishemik kasalligida bo'ladigan strukturaviy o'zgarishlarini aniqlash.

Material va metodlar

Samaraqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi terapiya va reanimasiya bo'limlarida yurakning surunkali ishemik kasalligidan vafot etgan jami 35 nafar bemorning bosh miyasidan olingan to'qima bo'laklari patologik anatomiya bo'limida o'rganildi. Bosh miya neyron tuzilmalarining morfologik va morofmetrik o'zgarishlarini yurakning surunkali ishemik kasalligiga bog'liqligini baholashda anamnestik, makroskopik, mikroskopik, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan o'tkazildi.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yurakning surunkali ishemik kasalligi tufayli vafot etgan bemorlar bosh mi yayarim sharlari po'stlog'i yuzaki qatlamlarida neyronlarda ishemik tipdagi o'zgarishlar kuzatiladi (1-rasm).


1-rasm. Bosh miya neyronlaridagi ishemik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10



Bu hujayralarning yadrolari piknotik va eksentrik joylashuvga ega ko'irinishda ko'zga tashlanadi. Neyronlarning o'chiqlari ingichka va uzun bo'lib, neyron tanasidan ancha masofagacha cho'zilib


borganligini ko'rishimiz mumkin. ya'ni. hujayra tanasidan juda uzoq masofada ko'rish mumkin. Bosh miya yarim sharlari po'stloq qismining chuqur qatlamlarida gidropik distrofiyaga uchragan neyronlar aiqlanadi. Ko'pgina neyronlar va gliositlar atrofida tor perisellyulyar bo'shliqlar rivojlanganligi qayd etiladi. Ko'ruv maydoning ayrim sohalarda bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida neyronlar atrofida perisellyulyar bo'shliqning kengayganligi ko'zga tashlanadi. Mazkur sohada akqariyat neyronlarning yumoloq shaklda bo'lib, giperxromaziya holatida. Ayrim neyronlarning yadrosi kariolizis jarayoni rivojlanganligi uchun ko'ruv maydonida aniqlanmaydi (2-rasm).

2-rasm. Bosh miya neyronlaridagi nekrobiotik va nekrotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10



Neyropilning yorug'lashuvi aniqlanadi. Ushbu sohalarda gliositlarning soni keskin kamayganligi qayd etiladi. Yurakning surunkali ishemik kasalligidan vafot etgan bemorlar bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining chuqur qavatlarida neyronlar sitoplazmasida gidropik distrofiya rivojlanish fonida kariositoliz holati aniqlanadi. Ko'plab neyronlarning atrofidagi perisellyulyar bo'shliqning kengayganligi qayd etiladi (3-rasm).

3-rasm. Bosh miya neyronlari atrofidagi bo'shliq holati (perisellyulyar bo'shliqning kengayganligi). Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10



Ayrim preparatlarda neyronlarning distrofik o'zgarishlari aniqlanib, gliositlarning soni kamayganligi qayd etiladi. Neyropilning yorug'lanishi ortganligikuzatiladi.

Shunday qilib, yurakning surunkali ishemik kasalligida bosh miya yarim sharlari po'stloq qismidagi neyronlarda ishemik va distrofik o'zgarishlar rivojlanadi. Shuningdek, perisellyulyar bo'shliqning turli darjada kengayishi va neyropilning yorug'lanishi qayd etiladi. Bunday o'zgarishlarni yurakning surunkali ishemik kasalligining profilaktikasi va davolash jarayonida e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Стародубов В.И., Щепин О.П. и др. Общественное здоровье и здравоохранение. Национальное руководство. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2014;624.
2. Погонин А.В., Люцко В.В. Медицинская помощь, оказываемая в стационарных условиях, в Российской Федерации (обзор литературы). Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики. 2022;1: 605-629.
3. Сборник статистических материалов по болезням системы кровообращения: Статистический сборник ФГБУ «ЦНИИОИЗ» Минздрава Российской Федерации. М.2020;305. Режим доступа: <http://www.demoscope.ru/weekly/2021/0899/biblio04.php>. [Дата обращения 27.05.2024 г]
4. Карпова О.Б., Загоруйченко А.А. Проблемы заболеваемости и смертности от болезней системы кровообращения взрослого населения в Сибирском федеральном округе. Бюллетень национального научно-исследовательского института общественного здоровья имени Н.А.Семашко. 2023;2:89-94. DOI: 10.25742/NRIPH.2023.02.013
5. Шепель Р.Н., Свищева А.А., Лусников В.П., Концевая А.В., Драпкина О.М. Хроническая ишемическая болезнь сердца региональные особенности амбулаторных обращений и госпитализаций взрослого населения Российской Федерации. Кардиоваскулярная терапия и профилактика. 2023;22 (9S):3712. DOI:10.15829/1728-8800-2023-3712. EDN MDPEJM

Muallif bilan bog'lanish uchun e-mail	Author's contact email	Email для связи с автором
Xasanov1737@gmail.com		